https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Fayzullayeva Zarnigor Abror qizi
Navoiy davlat universiteti 2-kurs tayanch doktoranti
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti
fayzullayevazarnigor41@gmail.com

“SIP-SAN’AT IMKONIYATLARI PLATFORMASI” BO‘LG‘USI RASSOM-PEDAGOGLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY OMILI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston ta’lim tizimidagi islohotlar doirasida bo‘lg‘usi rassom-pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni tahlil qilinadi. Xususan, "SIP-san’at imkoniyatlari platformasi" (Art Oppo-rtunities Platform) tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va bo‘lg‘usi san’at mutaxassislarni tayyorlashdagi pedagogik ahamiyati yoritilgan. Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston ta’lim tizimidagi islohotlar doirasida bo‘lg‘usi rassom-pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi "SIP-san’at imkoniyatlari platformasi"ning (Art Opportunities Platform) mazmun-mohiyatini yoritish va uning bo‘lg‘usi mutaxassislarni tayyorlashdagi pedagogik ahamiyatini ilmiy asoslashdan iborat. Ish jarayonida tizimli tahlil, sintez, pedagogik kuzatuv va eksperiment kabi metodlardan foydalanildi.

Kalit so‘zlar: SIP-platforma, rassom-pedagog, kasbiy kompetentlik,tasviriy faoliyat, innovatsion ta’lim, raqamli san’at, Yangi O‘zbekiston, tasviriy faoliyat.

Abstract: This article analyzes the role of digital technologies in improving the professional competence of future artist-pedagogues within the framework of reforms in the education system of New Uzbekistan. In particular, the concept of "SIP-art Opportunities Platform", its content and pedagogical significance in the training of future art specialists are highlighted. This article analyzes the role of digital technologies in improving the professional competence of future artist-pedagogues within the framework of reforms in the education system of New

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Uzbekistan. The purpose of the study is to clarify the content and essence of the "SIP-art Opportunities Platform" and scientifically substantiate its pedagogical significance in the training of future specialists. In the process of work, such methods as systematic analysis, synthesis, pedagogical observation and experiment were used.

Keywords: SIP-platform, artist-pedagogue, professional competence, visual activity, innovative education, digital art, New Uzbekistan, visual activity.

Аннотация: В данной статье анализируется роль цифровых технологий в повышении профессиональной компетентности будущих художников-педагогов в рамках реформ системы образования Нового Узбекистана. В частности, освещается концепция «Платформы возможностей SIP-art», ее содержание и педагогическое значение в подготовке будущих специалистов в области искусства. Цель исследования – уточнить содержание и сущность «Платформы возможностей SIP-art» и научно обосновать ее педагогическое значение в подготовке будущих специалистов. В процессе работы использовались такие методы, как систематический анализ, синтез, педагогическое наблюдение и эксперимент.

Ключевые слова: SIP-платформа, художник-педагог, профессиональная компетентность, визуальная деятельность, инновационное образование, цифровое искусство, Новый Узбекистан, визуальная деятельность.

Kirish (Introduction)

So‘nggi yillarda oliy ta’lim kadrlar bazasini yaxshilash,sifatli kadrlar miqdorini kegaytirish va undan jahon standartlariga moslashtirish ta’lim tizimining asosiy ustuvor vazifaridan bo‘lib kelmoqda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ta’lim sifatini oshirish va raqamlashtirish ustuvor vazifa qilib belgilangan. Tasviriy san’at ta’limi ham bu jarayondan mustasno emas. Bo‘lg‘usi rassom-pedagog nafaqat mo‘yqalam bilan ishlashni, balki zamonaviy AKT vositalaridan foydalangan holda dars samaradorligini oshirishni ham bilishi shart. “SIP-san’at imkoniyatlari platformasi” aynan shu ehtiyojni qondirishga xizmat

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

qiladigan innovatsion modeldir. Ular nafaqat yuqori badiiy mahoratga, balki zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) samarali foydalanish ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishlari shart. An’anaviy tasviriy san’at ta’limi usullari zamonaviy mehnat bozori talablarini to‘liq qondira olmayapti, bu esa ta’limda mavjud bo‘shliqlarni aniqlaydi.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi shundaki, rassom-pedagog kadrlarni tayyorlash tizimida innovatsion ta’lim resurslaridan foydalanishni tizimlashtirish va ilmiy asoslash zarurati mavjud. Ushbu muammoni hal etish maqsadida “SIP-san’at imkoniyatlari platformasi” deb nomlangan maxsus raqamli resurs modeli taklif etilmoqda.

Tadqiqotning maqsadi SIP-platformasining bo‘lg‘usi rassom-pedagoglarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishdagi ta’sirini o‘rganish va uning pedagogik samaradorligini baholashdan iborat. Tadqiqot savoli: SIP-platformasi an’anaviy ta’limga nisbatan talabalarning kasbiy ko‘nikmalarini oshirishda qanchalik samarali?

METODLAR (Methods)

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuvga asoslangan kompleks metodologiya qo‘llanildi. Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

Tadqiqot dizayni: Pedagogik eksperiment (nazorat va eksperimental guruhlar bilan).

Ma’lumotlar yig‘ish: Bo‘lg‘usi rassom-pedagoglarning kasbiy tayyorgarlik darajasini baholash uchun test sinovlari, kuzatuvlar, so‘rovnomalar va ijodiy ishlar portfoliolarini tahlil qilish.

Materiallar va vositalar: “SIP-san’at imkoniyatlari platformasi” prototipi, kompyuterlar, grafik planshetlar, internet resurslari.

Tadqiqot obyekti: Samarqand davlat pedagogika instituti,Tasviriy san’at yo‘nalishining 3-kurs talabalari (jami 60 nafar, 30 nazorat guruhi, 30 eksperimental guruh).

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Pedagogik eksperiment: Eksperimental guruh talabalari ta'lim jarayonida SIP-platformasi modulidan foydalangan bo‘lsa, nazorat guruhi an'anaviy uslubda o‘qitildi. Eksperiment muddati [1yil 5,6-semestr].

“San’at imkoniyatlari platformasi” — bu bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilari uchun yagona innovatsion mexanizm bo‘lib, u ichiga pedagogik metodlar, texnologiyalar, mentorlik va amaliy loyihalarni jamlaydi. Bu mexanizm pedagogning professionallik darajasini kompleks tarzda rivojlantiradi, innovatsion qobiliyatlarini oshiradi va mutaxassis sifatida mustahkamlanishiga yordam beradi.

Loyihaning maqsadi va vazifalari:

Maqsad: Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetentlik va kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning innovatsion va texnologik imkoniyatlarini kengaytirish.

Vazifalar: Pedagogik metodlar va yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish. Tashqi muhit bilan hamkorlikni rivojlantirish. Amaliy loyihalar va kreativ ishlanmalarni ishlab chiqish. O‘qituvchilarning personal portfelini shakllantirish. Loyihaning asosiy komponentlari. Boshlang‘ich baholash. O‘qituvchining hozirgi kasbiy salohiyati va ehtiyojlarini aniqlash. Anketalar, testlar, intervyular. Individual rivojlanish rejasi (IRR).

Modullarga asoslangan rejalar: pedagogika, texnologiya, ijod, loyiha boshqaruvi.

Ta’lim va rivojlanish faoliyatlari. Seminarlar, master-klasslar, webinarlari. Amaliy loyiha va ishchi guruh mashg‘ulotlari. Praktikumlar va mentorsizlik. Platforma va resurslar. Onlayn ta’lim platformasi. Virtual galereya va simulyatorlar. Digital resurslar va ta’lim materiallari. Natijalarni baholash va portfel shakllantirish. Erishilgan natijalar va ijodiy ishlanmalarni yozib boorish. Yil yakunida baholash va feedback.Monitoring va qiymatlantirish. Olingan yutuqlar va ko‘nikmalarni doimiy ravishda nazorat qilish. Faoliyatlar yakunida baholash jarayonini o‘tkazish. Feedback va takliflar orqali loyihani rivojlantirish. Kutilayotgan natijalar: Kasbiy kompetentlikning yaxshilanishi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

2.Oliy ta’lim muassasasi kadrlar bazasini yaxshilash ehtiyojlariga moslashtirilgan modul- sistema: ta’limiy strategiya va tashkiliy rivojlanish: uzoq muddatli maqsadlar va innovatsion tashabbuslar. Talim sifatini oshirish: zamonaviy pedagogik metodlar va innovatsiyalarni o‘rgatish. Texnologik platformalar: virtual galereyalar, simulyatorlar, onlayn kurslar. Mentorlik va tarmoq: tajribali mutaxassislar bilan aloqalar, xalqaro hamkorlik. Tashqi hamkorlar: ilmiy kengashlar, madaniyat yurtlari, san’at festivallari. Natijalar va portfel.

3.Shaxsiy va jamoaviy loyihalar, tashqi chiqishlar. Portfolio, baholash va rivojlanish strategiyasi.

4.Monitoring – baholash. Doimiy nazorat va tahlil. Feedback asosida takomillashtirish. Rivojlanishni kuzatish va yangi rivojlanish yo‘llarini aniqlash. Xulosa qilib aytish mumkinki, bu diagramma va mexanizm innovatsion yondashuv va integratsiyani ta’lim jarayoniga kiritishni ko‘zlaydi. Innovatsion texnologiyalar va mentorlik tarmoqlari bilan ta’lim sifatini oshirish uchun mo‘ljallangan. Amaliy loyihalar, portfel va baholash esa o‘qituvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydi.

SIP-platformasining konseptual asosi

SIP (Art Opportunities Platform) – bu bo‘lg‘usi rassom-pedagoglar uchun mo‘ljallangan majmuaviy ta’lim resursi bo‘lib, u quyidagi uchta ustunni o‘z ichiga oladi:

S (Skills) – Ko‘nikma: Akademik rasm, rangtasvir va kompozitsiya bo‘yicha amaliy mahorat darslari.

I (Innovation)– Innovatsiya: Tasviriy san’atda VR (virtual borliq), grafik planshetlar va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish.

P (Pedagogy) – Pedagogika: San’at orqali tarbiyalash metodikasi, art-terapiya va darsni tashkil etishning kreativ usullari.

Kasbiy kompetentlikni takomillashtirish omillari

SIP-platformasi orqali bo‘lg‘usi rassom-pedagoglarda quyidagi kompetensiyalar shakllanadi:

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Texnologik kompetentlik: An’anaviy san’atni raqamli formatga o‘tkazish (Digital Art), onlayn ko‘rgazmalar tashkil etish.

Metodik kompetentlik: Tasviriy faoliyatga o‘rgatishning interaktiv usullarini (masalan, master-klasslar videotekasi) o‘zlashtirish.

Kreativ kompetentlik: Standart bo‘lmagan vaziyatlarda muammoning badiiy-pedagogik yechimini topish.

Ma’lumotlarni tahlil qilish: Olingan natijalar matematik statistika usullari va SPSS dasturi yordamida qayta ishlandi, o‘rtacha ballar, standart og‘ishlar va t-test natijalari hisoblandi.

NATIJALAR (Results)

Yangi O‘zbekiston maktablarida “Tasviriy san’at va chizmachilik” fanini o‘qitishda SIP-platformasi quyidagi imkoniyatlarni beradi:

Virtual muzeylar: Talabalar jahon va O‘zbekiston san’at durdonalarini masofadan turib o‘rganishlari va tahlil qilishlari mumkin.

Qayta aloqa tizimi: Talaba chizgan ishini platformaga yuklaydi va uzoqdagi ustoz (mentor)dan real vaqt rejimida tuzatishlar oladi.

Resurslar bazasi: Mashg‘ulotlar uchun tayyor dars ishlanmalari, metodik qo‘llanmalar va darsliklarning elektron variantlari jamlanadi.

MUHOKAMA (Discussion)

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “SIP-san’at imkoniyatlari platformasi” bo‘lg‘usi rassom-pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda muhim omil bo‘la oladi. Eksperimental guruhda kuzatilgan yuqori natijalar platformaning interaktivligi, multimedia resurslarining boyligi va o‘quv materiallarining tizimlashtirilganligi bilan izohlanadi.

An’anaviy ta'lim uslubida talabalar asosan auditoriya sharoitida, cheklangan materiallar bilan ishlaydilar. SIP-platformasi esa virtual muzeylar, onlayn master-klasslar va real vaqt rejimida fikr almashish imkoniyatlarini taqdim etadi, bu esa o‘rganish motivatsiyasini oshiradi va amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlaydi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Biroq, muhokama jarayonida ba'zi cheklovlar ham aniqlandi: barcha talabalar bir xil darajada texnologik savodxonlikka ega emasligi dastlabki bosqichda qiyinchilik tug‘dirdi. Shuningdek, platformadan foydalanish uchun doimiy ravishda yuqori tezlikdagi internet va zamonaviy texnik vositalar talab etiladi. Ushbu natijalar kelgusi tadqiqotlar uchun yo‘nalish bo‘lib xizmat qiladi, bunda texnologik infratuzilmani yaxshilash va platformadan foydalanish bo‘yicha qo‘shimcha treninglar o‘tkazish masalalari ko‘rib chiqiladi.

XULOSA (Conclusion)

“SIP-san’at imkoniyatlari platformasi” bo‘lg‘usi rassom-pedagoglarni tayyorlashda shunchaki yordamchi vosita emas, balki ularning kasbiy kompetentligini jahon standartlari darajasiga olib chiquvchi asosiy omildir. Ushbu platformaning joriy etilishi Yangi O‘zbekiston ta’lim tizimida ijodkor yoshlarni tarbiyalash sifatini yangi bosqichga ko‘taradi.

“SIP-san’at imkoniyatlari platformasi’ Yangi O‘zbekiston sharoitida bo‘lg‘usi rassom-pedagoglarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning asosiy omili ekanligi ilmiy jihatdan isbotlandi. Tadqiqot quyidagi xulosalarni berdi:

SIP-platformasi ta'lim jarayonini raqamlashtirish va innovatsiyalash orqali ta'lim samaradorligini oshiradi.

U bo‘lg‘usi pedagoglarda texnologik, metodik va kreativ kompetentliklarni uyg‘un rivojlantiradi.

Olingan amaliy natijalar platformaning o‘quv dasturlariga keng joriy etish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatmoqda.

Kelgusida ushbu platformani yanada takomillashtirish, unga sun'iy intellekt elementlarini kiritish va boshqa ta'lim yo‘nalishlariga moslashtirish bo‘yicha ishlar davom ettiriladi.

Interfaol usullar orqali ta’lim samaradorligi oshadi, o‘qituvchi va talaba o‘rtasida o‘zaro hamkorlik talabalarda erkin ijodiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi va shakllanadi. Bu innovatsion yondashuvda talaba shaxsi ta’limda markaziy figuraga aylanadi. O‘qitishda noan’anaviy shakllar interfaol usullarni uch

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

guruhga ajratish mumkin. O‘qitishda hamkorlik, modellashtirish o‘rganishning tadqiqot modeli. Ishlab chiqilgan model bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorlash zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish uchun shart sharoitlar hamda o‘qitish metodikasi mazmunan takomillashtirildi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish modelining maqsad komponentida malaka talablari asosida o‘qituvchining kasbiy komponentlarini rivojlantirishga e’tibor qaratilgan. Jumladan, zamonaviy pedagogik texnologiyaning asosiy turlari, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyat strukturasi, komponentlar tuzilmalari yoritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2023. 44-b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun 2020. Mirziyoyev Sh.M. “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF 60-son Farmoni, 2022 yil 28 yanvar.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi “Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish”Konsepsiyasi. PF-5847-son Farmoni, 2019 yil 8 oktabr.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son Qarori, 2020- yil 27 fevral.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2024-yil 20-noyabr.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-134-son Farmoni, 2022-yil 11- may.Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. – Toshkent, 2021.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

8.Вайденко В.И. Компетентностний подход к проектированию государственних образовательних стандартов висшего профессионалного образования (методологические и методические вопроси): методическое пособие. – М.: Исследовательский сентр проблем качества подготовки спетсиалистов, 2005. – 114 с.

9. Банников Виктор Николаевич Профессиональное становление будущего учителя изобразительного искусства 13.00.02 - теория и методика обучения и воспитания (изобразительное искусство) Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора педагогических наук. Шуя 2009.

10. Поровский Алексей Геннадьевич Процессный подход к подготовке будущих учителей изобразительного искусства в вузе Специальность 13.00.08 -Теория и методика профессионального образования.

11. Белкин А.С. Компетентност, профессионализм, мастерство. – Челябинск: ОАО “Южно-Уралский кн. изд-во”, 2004. – 176 с.

12. Биков С.А. Формирование информационно-коммуникационной компетентности будуших учителей началних классов: Дис. ... канд.пед.наук. – Новокузнетск: 2009. – 179 с. 31. Бенчмаркинг ин ҳигҳер эдусатион. 13.Эуропеан Нетворк фор Қуалитй Ассурансэ. http://www.enqa.net/texts/benchmarking.pdf

14. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent, 2006.

15.Bulatov S.S. Tasviriy san’at metodikasi – Toshkent, 2010.